



# Toshkent shahar statistika boshqarmasi

## Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021-yil  
yanvar–sentabr oylarida





**2021-yil yanvar–  
sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi – milliy daromadlarni oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi**


**84,9 %**

**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi**

**40,5 %**

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**  
**73 981,5 mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati**  
**120,0 %**





**2021-yil yanvar–sentabr**


**Dastlabki ma'lumotlar**



**Xizmatlar sohasi** — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yanvar–sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **73 981,5** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **17 101,6** mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,0 %** ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021-yil yanvar–sentabr oylarida)





## 2021-yil yanvar–sentabr

## Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021-yil yanvar–sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020-yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar jami</b>	<b>73 981,5</b>	<b>120,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	7 039,8	123,3
Moliyaviy xizmatlar	23 237,3	126,5
Transport xizmatlari	7 150,2	114,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	4 332,2	106,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 430,2	125,1
Savdo xizmatlari	17 919,1	112,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2 870,6	124,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3 368,5	147,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 544,2	118,3
Ijara xizmatlari	1 210,3	125,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	481,5	139,4
Shaxsiy xizmatlar	904,2	109,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	2 287,8	108,4
Boshqa xizmatlar	3 537,8	102,9



**2021-yil yanvar–sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tuzilmasi

**Eng yuqori ko'rsatkich**

**Eng past ko'rsatkich**





## 2021-yil yanvar–sentabr

## Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tuzilmasida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2021-yil yanvar–sentabr oylarida ularning ulushi **31,4 %** ni tashkil etdi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,7 %** ga yetgan.

**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar–sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmda **31,5 %** ni tashkil etdi. 2020-yilning shu davrida kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **0,5 %**.

2021-yil yanvar–sentabr oylarida yuqori o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlarda (47,9 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarida (39,4 %), moliyaviy xizmatlarda (26,5%) ijara xizmatlarida (25,9 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (24,0 %) hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (18,3 %) qayd etildi.


**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar–sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi – **26,5 %**. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida esa **23,3 %** kuzatilgan.



**2021-yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





**2021-yil yanvar–sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Savdo** – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogo bo'linadi.

2021-yil yanvar–sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **24,2** % ni tashkil etdi, bu esa **17 919,1** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar–sentabr oylarida ularning hajmi **11 716,5** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **24,1** % iga to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

**2020 y.  
yanvar–sentabr**

Xizmatlar hajmi  
**13 917,5 mlrd. so'm**

O'sish sur'ati  
**103,6 %**

Ulushi  
**24,5 %**



**2021 y.  
yanvar–sentabr**

Xizmatlar hajmi  
**17 919,1 mlrd. so'm**

O'sish sur'ati  
**112,3 %**

Ulushi  
**24,2 %**



## 2021-yil yanvar– sentabr


## Dastlabki ma'lumotlar

2021-yil yanvar–sentabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb yarim qismini, aniqrog'i 23,7 % ini tashkil etdi.

### Savdo xizmatlari tuzilmasi

(2021-yil yanvar–sentabr oylarida)

**Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**

6,8 %



**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo xizmatlari**

45,7 %

47,5 %



**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar–sentabr oylarida ulgurji savdo ulushi 44,9 % ga yetdi.



**2021-yil yanvar–sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

*(2021-yil yanvar–sentabr oylarida)*



2021-yil yanvar–sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **23 237,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar–sentabr oylarida ularning hajmi **17 922,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021-yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmi-dagi ulushi **31,4** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar–sentabr oylarida ularning ulushi **31,5** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **5 315,2** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021-yil yanvar–sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **126,5** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar–sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati **128,2** % ga yetgan.



## **2021-yil yanvar–sentabr**

## **Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 89,4 % ni tashkil etdi.

2021-yilning yanvar–sentabr oylari yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **6,5 %** oralig'ida qayd etildi.

## **Moliyaviy xizmatlar tuzilmasi** *(2021-yil yanvar–sentabr oylarida)*



Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar–sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,3 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,0 %** ga to'g'ri kelgan.



**2021-yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**2020-y.  
yanvar-sentabr**

**2021-y.  
yanvar-sentabr**

5 625,3  
mlrd. so'm

7 039,8  
mlrd. so'm

120,3 %

123,3 %

9,89%

9,3 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi  
ulushi

Hajmning o'sishi

1 414,5 mlrd. so'mga




## 2021-yil yanvar–sentabr

## Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021-yil yanvar–sentabr oylarida ularning ulushi **58,6 %** ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2020-y.  
yanvar–sentabr



2021-y.  
yanvar–sentabr



 **Telekommunikatsiya xizmatlari**

 **Kompyuter dasturlashtirish bo'yicha xizmatlari**

 **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

 **Nashriyotchilik xizmatlari**

**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar–sentabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **61,8%** ga yetgan.



**2021-yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti – kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**2 150,7 mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**

**3 368,5 mlrd. so'm**

**2020-y. yanvar – sentabr**



**2021-y. yanvar – sentabr**

2021-yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **3 368,5** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,6 %** ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **93,7 %** ni tashkil etdi.

**93,7 %**

**O'sish sur'atlari, % da**

**147,9 %**

**Taqqoslash uchun:** 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **2 150,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2020-yilga nisbatan o'sish sur'ati **93,7 %** qayd etilgan.



**2021-yil yanvar–sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmi** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**

**1 614,5**

**2 430,2**

**2020-y. yanvar–sentabr 2021-y.**



**O'sish sur'ati, % da**

**79,4**

**125,1**

2021-yil yanvar–sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **815,7** mlrd. so'mga ortdi.



**2021-yil yanvar–  
sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tuzilmasi

2021-y. yanvar–sentabr

**78,8 %**

**21,2 %**



**15,5 %**

**84,5 %**

**2020-y. yanvar–sentabr**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**

**Yashash bo'yicha xizmatlar**

2021-yil yanvar–sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **78,8 %** bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar–iyul oylarida ularning ulushi 84,5 % ni tashkil etgan.



**2021-yil yanvar–sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tibbiyot yonalishidagi tashkilot va korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya xizmatlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

yanvar–sentabr

**2020-y.**

**2021-y.**

1 013,2  
mlrd. so'm

**Xizmatlar  
hajmi**

1 544,2  
mlrd. so'm

86,0 %

**O'sish  
sur'ati**

118,3 %

1,8 %

**Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi**

2,1 %






**2021-yil yanvar–sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## Tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tuzilmasi, % da (2021-yil yanvar–sentabr oylarida)



2021-yil yanvar–sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi eng katta ulush – **15,0%** (2020-yil yanvar–sentabr oylarida – **15,3%**)ni Yunusobod tumani tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangihayot tumanida – **1,3%** (2020-yil yanvar–sentabr oylarida – **0,9%**) qayd etildi.



## 2021-yil yanvar–sentabr

## Dastlabki ma'lumotlar

Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021-yil yanvar–sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021-y.	2020-y.
<b>Toshkent shahrida</b>	<b>73 981,5</b>	<b>120,0</b>	<b>106,9</b>
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	2367,0	130,8	102,0
Mirzo Ulug'bek	7523,1	116,0	106,9
Mirobod	8255,8	117,5	109,8
Olmazor	6604,1	133,9	103,8
Sirg'ali	3684,0	135,5	66,8
Uchtepa	4571,9	116,5	103,4
Chilonzor	8891,3	110,8	126,6
Shayxontohur	8540,5	124,8	92,1
Yunusobod	11062,1	115,9	112,5
Yakkasaroy	6647,0	115,8	92,4
Yangihayot	998,1	153,9	
Yashnobod	4836,8	122,5	124,7



**2021-yil yanvar–sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida

**2021-yil 1-sentabr holatiga ma'lumot**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

**89 640  
birlik**

2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

**84,9 %**



**76 159  
birlik**

2020-yilning mos davrida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

Ularning umumiy sonidagi ulushi

**82,4 %**



## 2021-yil yanvar– sentabr

## Dastlabki ma'lumotlar

2021-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **75,0 %**, sanoatda **16,0 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida **1,0 %** ga yetdi. Qurilish sohasida **8,3 %** ga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 2021-yil 1-sentabr holatiga tuzilmasi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Taqqoslash uchun:** 2020-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **74,3 %** ni, sanoatda **16,6 %** ni, qurilishda **8,1 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida **1,0 %** ni tashkil etgan.




## 2021-yil yanvar–sentabr

## Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlar sohasini rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



**40,5 %**

2021-yil yanvar–sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **40,5 %** ni tashkil etdi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining 2021-yil 1-sentabr holatiga ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **72,0%** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
tel.: 71-203-88-15